



XII. DEMOGRAFIK HOLAT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning 1 oktabr holatiga viloyatning doimiy aholisining soni 1 466,6 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 23,2 ming kishiga yoki 101,6 foizga ko'paydi. Shundan, 688,4 ming kishi – shahar joylarida (jami aholi sonining 46,9 %) va 778,2 ming kishi – qishloq joylarida (54,1 %) istiqomat qiladi.



**Jizzax viloyatining hududlari
bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot
(2022 yilning 1 oktabr holatiga)**

	<i>Doimiy aholi soni, ming kishi</i>			<i>Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, foizda</i>			<i>Doimiy aholi sonining viloyatda ulushi, foizda</i>		
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>jami</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>jami</i>	<i>shu jumladan:</i>	
		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>		<i>shahar</i>	<i>qishloq</i>
Jizzax viloyati	1 466,6	688,4	778,2	102,2	102,5	101,9	100,2	100,0	100,0

shahar:


Jizzax	190,6	190,6	103,7	103,7	13,0	27,7
--------	-------	-------	-------	-------	------	------

tumanlar:

Arnasoy	47,8	16,4	31,4	101,5	101,2	101,6	3,3	2,4	4,0
Baxmal	165,6	45,1	120,5	102,0	102,8	101,8	11,3	6,6	15,5
G'allaorol	181,8	63,5	118,3	102,1	101,8	102,3	12,4	9,2	15,2
Sharof Rashidov	235,2	93,7	141,5	102,0	102,6	101,3	16,0	13,6	18,2
Do'stlik	68,5	29,0	39,5	101,6	102,1	101,6	4,7	4,2	5,1
Zomin	174,1	82,8	91,3	102,3	102,2	102,4	11,9	12,0	11,7
Zarbdor	92,0	50,9	41,1	102,3	102,2	102,7	6,3	7,4	5,3
Zafarobod	52,3	23,9	28,4	101,8	102,1	101,4	3,6	3,5	3,6
Mirzacho'l	54,2	30,3	23,9	101,7	101,8	101,7	3,7	4,4	3,1
Paxtakor	78,8	38,1	40,7	102,5	101,9	103,0	5,4	5,5	5,2
Forish	96,4	17,9	78,5	101,6	101,7	101,5	6,6	2,6	10,1
Yangiobod	29,3	6,2	23,1	101,4	100,0	101,1	2,0	0,9	3,0



Viloyat doimiy aholisi soni tarkibida hududlar ulushi, % da
(2022 yil 1 oktabr xolatiga)




Yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha aholining
tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	Kishi soni		1000 aholiga nisbatan	
	2021 yil	2022 yil	2021 yil	2022 yil
Tug'ilganlar	30 910	29 802	29,0	27,4
Vafot etganlar	4 445	5 194	4,2	4,8
<i>shu jumladan:</i>				
bir yoshgacha bolalar	255	299	8,3	9,6
Nikohlar, mingta	9 094	8 536	8,5	7,8
Ajralishlar, mingta	946	1 231	0,9	1,1

Tug'ilish. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida tug'ilganlar soni 29 802 kishini tashkil etdi va 2021 yilning shu davriga (30 910 kishi) nisbatan minus 1 108 kishiga kamaydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 27,4 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish koeffitsiyentining sezilarli ko'payishi Jizzax shaharda (28,6 promilledan 30,9 promillegacha), Mirzacho'l (20,7 promilledan 21,3 promillegacha) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



O‘lim. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida o‘lganlar soni 5 194 kishini tashkil qildi va 2021 yilning shu davriga (4 445 kishi) nisbatan 749 kishiga ko‘paydi, mos ravishda o‘lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil qildi (2021 yil yanvar-sentabrdada 4,2 promille bo‘lgan).


O‘lim koeffitsiyentining sezilarli o‘sishi Baxmal (4,4 dan 5,1 promillegacha), G‘allaorol (4,8 dan 5,7 promillegacha), Zomin (4,3 dan 6,2 promillegacha) hissasiga to‘g‘ri keladi.

O‘lim darajasining eng past ko‘rsatkichi Jizzax shaharda (4,3 promille) Sharof Rashidov tumanida (3,7 promille) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Hududlar kesimida o‘lganlar soni va koeffitsiyenti
2022 yilning yanvar-sentabr holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille)**




O‘lganlar umumiy sonidan 36,1 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,9 foizi – o‘sma kasalliklaridan, 10,8 foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan, 4,4 foizi – ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 27,8 foizi – nafas olish organlari kasalliklaridan, 1,7 foizi – infeksion va parazitar kasalliklaridan, 11,3 foizi – boshqa kasaliklardan vafot etgan.



Nikohlar va ajralishlar. 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida 8 536 ta nikohlar va 1 231 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,8 ni (2021 yilning yanvar-sentabrdagi 8,5 bo‘lgan) va nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 ni (2021 yilning yanvar-sentabrida 0,9 bo‘lgan) tashkil etgan.

**2022 yilning yanvar-sentabr oyida viloyat bo‘yicha
tuzilgan nikoh koeffitsiyenti**



Tuzilgan nikohlar soni 2021 yilning mos davriga nisbatan ayrim hududlarda sezilarli ko‘payish kuzatilgan. Bunda eng yuqori ko‘payish sur’ati Jizzax shazar (102, %) Baxmal (109,8 %) Zomin (101,2 %) tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.



**Hududlarda yanvar-sentabr oylarida tuzilgan nikohlar
va nikohdan ajralishlar soni**

(kishida)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>

Jizzax viloyati	9 094	8 536	946	1 231
------------------------	--------------	--------------	------------	--------------


shahar:

Jizzax	1 222	1 249	146	209
--------	-------	-------	-----	-----

tumanlar:

Arnasoy	269	199	34	38
Baxmal	964	1 059	83	114
G‘allaorol	1 209	1 100	113	169
Sharof Rashidov	1 607	1 401	144	177
Do‘stlik	354	312	37	41
Zomin	1 081	1 094	108	145
Zarbdor	553	506	61	64
Zafarobod	287	285	45	47
Mirzacho‘l	261	235	37	51
Paxtakor	506	434	62	88
Forish	595	516	53	65
Yangiobod	186	146	23	23

**Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti
(2022 yil yanvar-sentabr)**



Ajrimlar sonini 2021 yilning mos davriga nisbatan taqqoslanganda, yuqori o'sish sur'ati Baxmal (137,3 %), Sharof Rashidov (122,9 %), Zomin (134,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



**Yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi
soni va koeffitsiyenti**

(*kishi*)

	<i>Kishi soni</i>		<i>1 000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>

Jizzax viloyati	26 465	24 608	24,8	22,6
------------------------	---------------	---------------	-------------	-------------

shahar:

Jizzax	3 303	3 745	24,2	26,6
--------	-------	-------	------	------

tumanlar:

Arnasoy	748	675	21,4	19,0
Baxmal	3 513	2 891	29,3	23,5
G'allaorol	3 476	3 013	26,3	22,3
Sharof Rashidov	4 165	4 213	24,4	24,2
Do'stlik	1 047	1 014	20,9	19,9
Zomin	3 492	2 916	27,7	22,6
Zarbdor	1 786	1 582	26,8	23,2
Zafarobod	920	802	24,1	20,6
Mirzacho'l	690	688	17,4	17,0
Paxtakor	1 409	1 341	24,7	22,9
Forish	1 499	1 361	21,2	18,9
Yangiobod	417	367	19,4	16,9

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 4 995 kishi, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 6 367 kishi tashkil qildi. Mos ravishda migratsiya qoldig'i minus 1 372 kishi tashkil etgan, 2021 yilning mos davrida minus 1 923 kishi bo'lgan.



Yanvar-sentabr oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldosi</i>	
	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2021 yil</i>	<i>2022 yil</i>
Jizzax viloyati	6 966	4 995	8 889	6 367	-1 923	-1 372
<i>shahar:</i>						
Jizzax	1 527	1 092	1 600	1 144	-73	-52
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	216	131	368	275	-152	-144
Baxmal	366	220	899	660	-533	-440
G'allaorol	359	302	855	618	-496	-316
Sharof Rashidov	1 758	1 132	1 140	769	618	363
Do'stlik	354	197	557	389	-203	-192
Zomin	504	360	701	498	-197	-138
Zarbdor	442	337	530	346	-88	-9
Zafarobod	335	205	391	245	-56	-40
Mirzacho'l	330	347	429	337	-99	10
Paxtakor	445	415	632	456	-187	-41
Forish	214	160	602	456	-388	-296
Yangiobod	116	97	185	174	-69	-77

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Baxmal (minus 440 kishi), G'allaorol (minus 316 kishi), Forish (minus 296 kishi) va (Do'stlik minus 192 kishi) tumanlarida qayd etildi. Migratsiyaning ijobiy saldosi Sharof Rashidov tumani (363 kishi) va Mirzacho'l (10 kishi) kuzatildi.